

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ”** (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Носиров Ш.Ў – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар, маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг ўзлари масъул ва жавобгардир

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)
BUXORO AMIRI KOLLEKSIYASINING TAVSIFI
Feruza Sharopova
Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi, bosh muhofizi
A’зам Boltayev
Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD) azam.boltaev.2015@mail.ru

XX asr birinchi choragida Buxoroda muzey o‘z faoliyatini boshladi. Aniqrog‘i 1922-yil 8-noyabrdagi Rus-Xitoy banki binosida dastlab muzey o‘z faoliyatini boshlagan. Uning dastlabki ko‘rgazmasi 5 ta xonada jami 168 ta eksponat namoyish etilgan edi. Buxoro muzeyi o‘zining 100 yillik tarixi mobaynida rivojlanib, shakllanib bordi. Hozirda Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi tarkibida 16 ta alohida muzey va 2 ta doimiy ekspozitsiya faoliyat olib bormoqda. Yaqin yillarda muzeylarimiz soni 20 tadan ziyod bo‘lishi rejalashtirilgan. Muzey jamlanmasida bugungi kunda jami 134 mingdan ortiq artefaktlar saqlanmoqda.

Muzey-qo‘riqxona kolleksiyalarining ma’lum qismini mang‘it amirlariga tegishli ashylar tashkil etadi. Buxoro amirligi ag‘darilgandan so‘ng (1920 y.) milliy madaniyatimiz namunalari, tarixiy ahamiyati katta bo‘lgan buyumlar xorijga chiqib keta boshladi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif nozirligi bir necha marotaba matbuot va ommaviy chiqishlarda tarixiy ashylarni chetga chiqarish mumkin emasligi va kimda tarixiy ahamiyatga ega buyumlar bo‘lsa keltirib Maorif nozirligiga topshirishi so‘ragan. Ikki yil ichida tarixiy ashylar soni ko‘payib muzey tashkil etishga asos bo‘ldi. Shuningdek, bu davrda “eski hukumatdan qolgan narsalar” nomi bilan amirlikdan va amaldorlardan qolgan buyumlar ham ko‘payib qolgan edi.

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi kirim kitoblarining dastlabki uchta to‘g‘ridan-to‘g‘ri amirlik bilan bog‘liq ashylar hisoblanadi. Keyinchalik aholi tomonidan topshirilgan va muzey mutaxassislari yordamida amirlik kolleksiyasiga tegishli ekanligi aniqlangan buyumlar soni bilan ham kolleksiya soni ortib bormoqda.

O‘rtacha Osiyoda ham zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlaridan biri bo‘lib, zardo‘zlik – hunarmandchiligi, zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi hisoblanadi. Qadimdan oddiy ipakdan tayyorlangan iplarni simobda eritilgan kumush va tilla suviga botirib olishgan. Natijada ko‘zni qamashtiruvchi zar iplar hosil bo‘lgan. Ipakning rangdorligi kiyimlarni yanada mukammalashtirgan.

Buxoro amirlari va ularning oilasiga tegishli bo‘lgan zardo‘zlik kiyimlarining hozirgi kunda nafaqat O‘zbekiston muzeylarida balki, Rossiya, Germaniya, Avstriya va boshqa dunyo muzeylarida ham saqlanmoqda.

Amirlik kolleksiyasida zardo‘zlik buyumlari alohida to‘plamlarni tashkil etadi. Buxoro amirlari asosan sof ipakdan, baxmal va kundal matolardan tayyorlangan kiyimlarni kiyishgan. Bu kiyimlar zar iplar bilan naqshlanganligi sababli ham “to‘n” deb atalgan. Amirlik qarorgohi bo‘lgan Arkda maxsus “buxchaxona” (xranilishe dlya xalatov i procheyodeji) bo‘lib, u salomxona hovlisi ostida joylashgan. Bu xonada amir sovg‘aga tayyorlatgan davlat xazinasining bir qismi bo‘lgan kiyimlar saqlangan. Amir salomga kelganlarni taqdirlamoqchi bo‘lsa, daxlizda kutub turgan udaychiga ishora bergen va darhol yangi bir usti bosh kiyim “sarpo” (sar - bosh, po(poy) - oyoq) salomga kelgan kishiga topshirilgan.

Buxoro amirligida davlat amaldorlari va harbiylarni darajalarga ajratishda ham zardo‘zi to‘nlarning o‘rnini bo‘lgan. YA’ni amir Muzaffarxon zamonigacha turli unvon va ordenlar mavjud bo‘lmagan. Lavozimdagagi kishilarni uning turli buyumlariga qarab aniqlashgan. Asosan yuqori darajadagi harbiy amaldorlargina zardo‘zi to‘nlar bilan taqdirlanishgan. Albatta qushbegi, beklar ham zardo‘zi kiyim kiyishgan. Chunki ular ham ma’lum bir harbiy mansabga ega kishilar hisoblanishgan. Amirlikda ko‘pgina mansablarni diniy kishilar egallagan bo‘lib, Buxoro amirlarining aksariyat chopon(to‘n)lari zardo‘zlik uslubida tikilgan. Masalan, birgina hozirda Arkda joylashgan Buxoro amirligi tarixi ekspozitsiyasida namoyish qilinayotgan Buxoro amiri Muzaffarxonning zardo‘zi-zamindo‘zi uslubida tikilgan to‘nini tayyorlash ishlari 5 oy davom etgan bo‘lib, 3 ta mohir hunarmand (bir xil uslubdagi tika oladigan, yoshi ancha ulg‘aygan

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

zardo‘zlar faqatgina bu ishni uddalay olishgan) birgalikda tikishgan. To‘nning og‘irligi 10 kgdan ortiq bo‘lib, yana ustma-ust kiyilgan. Ushbu ekspozitsiyada yana bir yirik to‘n bo‘lib, baxmal matodan tikilgan. Old tomonida ikki uzun yo‘lak shaklida naqsh solingan. Orqa tomon ikki kift orasiga aylana “medalyon” tushirilgan naqshlar shu darajada nozik ishlanganki bir nuqtadan o‘n ikki marotaba zar ip o‘tkazilgan. Bugungi kunda esa bu ishni amalga oshirining iloji yo‘q ashyoning yeng va etaklari ham qalin zardo‘zi hoshiyalangan...

Sitorpi Moxi-Xossa amaliy san’at muzeyi ko‘rgazmasida ham Buxoro amirlarining bir necha zardo‘zlik buyumlari namoyishga qo‘yilgan. Ularning eng qadimiysi XIX asrning 60-yillariga tegishli bo‘lib, Amir Muzaffarxonning taxtga chiqishi munosabati bilan tikilgan. Joma yashil baxmalga guldo‘zi va zamindo‘zi uslubida buta gullar tasviri tushirib ishlangan.

1920-yilgacha Buxoroda 300 dan 350 nafargacha zardo‘z usta ishlaganligi ma’lum. Buxoro shahrining o‘ndan ortiq guzarida zardo‘zlar istiqomat qilishgan. Xususan, shaharning janubi-g‘arbida joylashgan Mir do‘stim guzari “Guzari zardo‘zo” deb ham yuritilgan. Ark qal’asida Buxoro zardo‘zi ashyolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatalardi, faqat juda oz miqdori sotish uchun bozorga chiqarilardi.

Erkaklarning zar bilan tikilgan to‘n, kamzul, chakmon, chalvor, poyafzol, belbog‘, salla, kuloh va jul faqat xonga hamda uning buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan birorta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyurilgan. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida aytib o‘tilgan kiyimlardan hech birini o‘ziga buyurtirishga haqi yo‘q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg‘a qilgandagina kiyishlari mumkin edi (bu amirning ma’lum bir lavozimni topshirish jarayoni anglatgan).

Ayollar va bolalarning zardo‘zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning a’zolarigagina kiyish rasm bo‘lgan. Bu kiyimlarni ular birorta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8-10 yoshdan katta bo‘lmanagan o‘g‘il bolalariga sunnat to‘yi munosabati bilan zarbof to‘n kiydirishgan.

1756-1920-yillarda Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlar sulolasiga taalluqli bo‘lgan zardo‘zi kiyimlar hozirgi kunda bizgacha yetib kelgan yagona yodgorlik nusxalardir.

Mang‘itlarning dastlabki vakillariga mansub bo‘lgan zardo‘zi ashyolar bizgacha deyarli yetib kelmagan. Amir Haydar (1800-1826 y.) zamonidan yagona yodgorlik sifatida zardo‘zi mahsi saqlanib qolgan. Mahsiga hijriy 1224 raqami tikilgan, bu milodiy 1809-1810-yillarga to‘g‘ri keladi. Mazkur raqamning uchrashi shu paytgacha zardo‘zi kiyimlarda ro‘y bergen yagona holdir.

Muzeyda Amir Nasrullodan (1827-1860 y.) anchagini zardo‘zi kiyimlar saqlanib qolgingan. Buyumlarning ko‘pchiligi 1895-yildan 1911-yilgacha hukmronlik qilgan Abdulahadga mansubdir, zero buxorolik kashtachilarining zardo‘zlik san’ati shu davrda gullab yashnagan.

Musulmon erkaklari bosh kiyimlardan biri bu salla hisoblanadi. Muzey qo‘riqxonaning zardo‘zi kiyimlar kolleksiyasida 10 ga yaqin zardo‘zi sallalar mavjud bo‘lib, ular hind shodokasiga turli o‘simliksimon naqshlar bilan bezatilgan. Shuni ham inobatga olish kerakki, Buxoro amirlari asosan oq salla o‘rashgan va ba’zan bayramona holatlardagina zardo‘zi salla kiyishgan.

Zardo‘zlik-hunarmandchilikning qadimiylaridan biri bo‘lib, zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi hisoblanadi. O‘rta Osiyoda ham zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlaridan biridir.

Buxoro ayollari libosiga xos kultapo‘shaklari, sochga taqiladigan to‘f va jamalaklari shu mehnat namunalari mahsulidir. Ayollar bosh kiyimlari o‘rtasida keng tarqalgani kultapo‘shak va do‘ppilardir. Kultapo‘shaklarni asosan ayollar, do‘ppilarni esa qizlar kiyishgan. Ro‘mollar ayollarning eng keng tarqalgan bosh kiyimi hisoblangan. Peshonabandlar hajmiga ko‘ra kichikroq bo‘lib, kvadrat shaklida bo‘lgan, boy-badavlat oilalardan bo‘lgan kelinlar va ayollarning peshonabandlari zardo‘zlik naqshlari bilan bezatilgan.

Amirlik kolleksiyasining kumush buyumlar to‘plamining aksariyati la’lilardan iborat bo‘lib, saroy uchun maxsus kavkazdan keltirilgan oila Arkda baland ko‘k rangda emallangan kandakorlik qilingan buyumlarni tayyorlashgan. Ularning markaziga “Buxoroyi sharif” va

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

tayyorlangan yili hijriyda zARB qilingan. Ba'zi la'lilarning shu markaziy qismida "Tuhfa" so'zlarI bitilgan. YA'ni bu uslubda ishlangan la'lilar yuqori martabali kishilarga sovg'a qilingan va asosan chet ellik amaldorlar uchun tayyorlangan. Bunga misol sifatida hozirda Davlat Ermitajida saqlanayotgan Buxoro amirligi kolleksiyasidagi kumush buyumlarni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, kumushdan tayyorlangan obdasta, qadah, oshxona buyumlari jamlanmasi ham saroy uchun sanoqli miqdorda tayyorlangan.

Buxoro amirlariga rus va Yevropa vakillari tomonidan sovg'a qilingan buyumlar ham alohida qimmatga ega. Ular orasida davlatchilik ramzi sifatida yagona nusxada saqlangan amirlik taxti alohida ahamiyatga ega. Ushbu taxt 1894-yil Kavkazda tayyorlangan. Taxt yog'ochdan ishlangan va zarhallangan. O'rindiq, suyanchiq va qo'l qo'yadigan qismlari qizil baxmal bilan qoplangan. Taxtni Turkiston general-gubernatori Verevskiy Amir Abdulaxadxon uchun tayyorlatgan va amirga sovg'a qilgan. Turkiston general-gubernatori tomonidan sovg'a qilingan buyumlar qatoriga billur vaza va kumush idishlarni ham kiritish mumkin. Amir oldiga kelgan elchi, siyosiy agent, yuqori doira vakillari o'zlarI bilan turli idishlardan iborat to'plamlarni olib kelishgan ularning tarkibida soatlar, kalendarlar, kovsh(yirik harbiylar qadahi), sut va shakar idishlari bo'lgan. Buyumlarga maxsus "Turkiston general-governatoridan amirninga" so'zlarI bitilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro muzeyida saqlanayotgan kolleksiyalar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bu kolleksiyalar ustida tadqiqod olib borish tadqiqotchilar oldida turgan aosisy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреев С.М..Арк Бухары. 1976. – С. 36.
2. Альмеев Р.В. Бухара – город-музей. – Ташкент: Фан, 1999. – С. 16;
3. Бухоро ахбори. 1922 йил. 112 сон. 23 ноябрь. Панжшанба. 1 саҳифа.
4. Бухоро вилоят давлат архиви. фонд 1175, рўйхат 1, китоб 1-298.
5. A'ZAM B. ABOUT THE TOPOONYM "BUKHARA". International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(4), (2021). 36-41.
6. Болтаев А.Х. Бухоро шаҳри 11 дарвозасининг тарихи ва тақдири (ўлкашунос ТФ Гелаҳ тадқиқотларида). Тюркоязычные страны. Республиканский научно-методический и познавательный журнал. Алмати, 2, (2018). 6-8.
7. Болтаев А. СН Юренев илмий меросида ўлкамиз тарихи масалалари. центр научных публикаций (buxdu. uz), (2023). 28(28).
8. Ражабов О.И., Болтаев А.Х. XX аср 40-йиллари Бухорода ташкил қилинган илмий экспедиция. Ўтмишига назар| Взгляд в прошлое| Look to the past, 6, (2021) 30-36.
9. Болтаев А. Х. (2019). Бухоро музей-тарихий ўлкашунослик маркази сифатида. Тошкент: Наврӯз, 70.
10. Болтаев А. (2020). БУХОРО ЎЛКАШУНОСЛИК МУЗЕЙИННИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ДАСТЛАБКИ ФАОЛИЯТИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz),1(1).
11. Болтаев А. (2021). Бухоро ўлкашунослик музейининг ташкил топиш тарихидан. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz),6(6).
12. Болтаев А. (2021). Бухоро ўлкашунослик музейи 100 ёшда (тарих ва таҳлил). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
13. Болтаев, А. (2023). SITORAI MOHI XOSA SAROYINING MUZEYGA AYLANTIRILISH TARIXI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 34(34).
14. Жумаев Қ.Қ. Ситораи Мохи Ҳосса. – Бухоро: Бухоро.2010.-Б.
15. Тошева, Н. М. Золотошвейные изделия бухарских эмиров // Молодой ученый. - 2015. -№ 9 (89). -С. 1302-1306.

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

У.Муродуллаев. ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИДА МАНГИТЛАР СУЛОЛАСИННИНГ ЎРНИ	217
Максуд Бешимов. АЙНИЙ ВА МУНЗИМ	219
Г.Нормуродова, О НЕКОТОРЫХ ИЗМЕНЕНИЯХ В СОЦИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (<i>КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА</i>)	221
Feruza Sharopova, A'zam Boltayev. BUXORO AMIRI KOLLEKSIYASINING TAVSIFI	225
Исмат Нусратиллоевич Наимов. БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚОЗИ МАНСАБИ ВА ХИЗМАТ ФАОЛИЯТИ ЙЎНАЛИШЛАРИ	228
Baxtiyorov Behruz Bobirovich. SOVET DAVRI MANBALARIDA BUXORO AMIRLIGINING BOSIB OLINISHI MASALALARINING YORITILISHI.....	232
Гулирухсор Темирова. XX АСР БОШЛАРИГА ОИД ЁЗМА МАНБАЛАРИДА БУХОРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ВА МАДАНИЙ ҲАЁТИ.....	234
Ғаниев Камолиддин. БУХОРО АМИРЛИГИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТИ ТАҲЛИЛИ (Ахмад Доңишнинг “Рисола, ёхуд Мангитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи” асари асосида)	236
Musinova Aziza Sadikovna. BUXORO KANDAKORLIK SAN'ATIDA NAQSH VA KOMPOZITSIYA	239
Inoyatova Mohinur Mirzobek qizi, Utayeva F.X. TURKISTON DAVRIY MATBUOTIDA IJTIMOIY JARA YONLARNING YORITILISHI	243
B.G‘. Rasulov. F.K.GIRS TAFTISH HISOBOTLARIDA ZARAFSHON OKRUGINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZIMINING AYRIM JIHATLARI.....	244
Tal'at Halimov. BUXOROLIK SAXOVATPESHA VA XALQ HOMIYSI CHORIQULBOY	246
G.R. Ostonova. POYI KALON ME`MORIY ANSAMBLI TARIXI.....	249
Рахимджанова Нигора. БУХОРО АМИРЛИГИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯ ВА САФАРЛАР ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ-XX АСР БОШЛАРИ).....	252
Mahmuda G‘oyibnazarova. BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY JARA YONLAR (“OYINA” JURNALI MAQOLALARI ASOSIDA).....	256
Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI O‘RGANISHDA MAHALIY MATBUOT NASHRLARINING AHAMIYATI	259
Bobodustov Bobur Mirzoboyevich. XIX ASRNING OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASI SUV XO‘JALIGIDA SARFLANGAN XARAJATLARNING TARIXIY-MANBAVIY TAHLILI.....	261
Qilichev R.E. BUXORO AMIRLIGIDA METALLSOZLIK	264
Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI YORITISHDA “TURON” GAZETASINING O‘RNI.....	266
Orziyev M.Z., Zayniyev K.M. O’RTA OSIYADA INGLIZ-RUS RAQOBATINING AFG’ONISTONDAGI MIGRATSIIYA JARAYONLARIGA TA’SIRI	268
Parmonov Sharofiddin Shavkatovich. VASSAL BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SHAHRISABZ BEKLIGI	271
Irgashov Xusniddin Nuridin o‘g‘li, Normatov Otayeb Maxamatjonovich. BUXORO AMIRLIGIDA “YANGI USUL” MAKTABLARINING OCHILISHI VA ULARNING MINTAQADAGI FAOLIYATI	274
M.B.Misaboyeva, Normatov Otayeb Maxamatjonovich. YOSH BUXOROLIKLAR HARAKATI TARIXIDAN	276
Махмуд Ҳамраев. АМИР ОЛИМХОННИНГ ИНГЛИЗ ҚИРОЛИГА МАКТУБИ.....	280
J.X.Arziqulov. BUXORO TADBIRKORLARINING KO‘RGAZMA VA YARMARKALARDAGI ISHTIROKI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA).....	282
Bayramova Nodira. BUXORO XONLIGIDA, XAYRLI KASALLIK” NOMINI OLGAN „RISHTA” VA	284